


Onlayn qabulda 210 nafar tadbirkorning muammolari tinglandi



Viloyat hokimi Ulug’bek Qosimovning joriy hafta uchun belgilangan “Tadbirkorlar qabuli” onlayn formatda o’tkazildi.

Videokonfrentsaloqa tarzida o’tkazilgan qabulda hududiy studiyalardan ishtirok etgan 210 nafar tadbirkorning olingan kredit muddatini uzaytirish, subsidiya ajratish, ko’rsatilgan xizmat uchun mablag’ni undirish, kommunikatsiyalar bilan ta’minalash va soliq masalalari bilan bog’liq 251 ta murojaati tinglandi.

Ko’tarilgan masalalarning 51 tasi qabul davomida ijobjiy hal etildi. 200 ta murojaat qo’shimcha o’rganib chiqish va hal etish choralarini ko’rish vazifasi bilan mas’ullarga yo’naltirildi.

Eslatib o’tamiz, “Tadbirkorlar qabuli”da ishtirok etish uchun viloyat hokimligida tashkil etilgan “Call-tsentr”ning quyidagi telefon raqamlariga va https://t.me/Tadbirkorlar_MurojaatiBot telegram botiga haftaning dushanba-juma kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha murojaat qilish mumkin:

- (76) 223-18-32
- (76) 223-18-33
- (76) 223-18-34
- (76) 223-18-35

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)